

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodirov	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH STRATEGIYASI ORQALI YANGI O'ZBEKISTONDA FAROVON JAMIYAT QURISH ISTIQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОСТРОЕНИЯ ПРОЦВЕТАЮЩЕГО ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ЧЕРЕЗ СТРАТЕГИЮ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ

PROSPECTS OF BUILDING A PROSPEROUS SOCIETY IN THE NEW UZBEKISTAN THROUGH AN ANTI-POVERTY STRATEGY

Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich¹

¹Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich

– Qo'qon davlat pedagogika instituti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari va yo'nalishlari ijtimoiy- falsafiy tahlili yoritilgan. Shuningdek, maqolada keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya siyosatining mohiyati va yo'nalishlari kambag'allikka qarshi kurashning dasturiy asoslarida keltirilgan islohot rejalari ochib berilgan va tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье описан социально-философский анализ перспектив и направлений построения процветающего общества в новом Узбекистане через стратегию борьбы с бедностью. Также в статье раскрываются и анализируются сущность и направления политики социальной защиты, реализуемой в нашей стране в последующие годы, планы реформ, представленные в программных основах борьбы с бедностью.

Abstract

This article describes the socio-philosophical analysis of the prospects and directions of building a prosperous society in the new Uzbekistan through the strategy of fighting against poverty. Also, in the article, the essence and directions of the social protection policy implemented in our country in the following years, the reform plans presented in the programmatic foundations of the fight against poverty are revealed and analyzed.

Kalit so'zlar: SHHT, BMTTD, YUNISEF, Ijtimoiy Kodeksni, Yangi O'zbekiston, demokratiya, ijtimoiy davlat.

Ключевые слова: ШОС, ПРООН, ЮНИСЕФ, Социальный кодекс, Новый Узбекистан, демократия, социальное государство.

Key words: SCO, UNDP, UNICEF, Social Code, New Uzbekistan, democracy, social state.

KIRISH

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va printsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurish maqsad qilib olingan. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikka qarshi kurash demakdir [1].

Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik [2], degan edi Prezidentimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Q.H.Abdurahmonov, A.V.Vaxabov, B.X.Umrzaqov, H.P.Abulqosimov, T.M.Axmedov, M.K.Abdullaeva ijtimoiy soha iqtisodiyoti, kambag'allik darajasini qisqartirishning aholi bandligiga bog'liqligi va mehnat bozorining nazariy va kontseptaul asoslarini tadqiq qilishgan. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish, aholi turmush darajasi, kambag'allikning kelib chiqishi sabablari, kambag'allik darajasini aniqlash mexanizmi, metodologiyasi va kambag'allikni qisqartirishning ayrim masalalari B.Sh.Xusanov, R.R.Xasanov, B.K.G'oyibnazarov, D.M.Karimova, X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov, N.M.Majidov, R.F.Djumanova, kambag'al va ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya yo'nalishlari va ularning qamrov darajasini oshirish

M.A.Xakimova, B.B.Baxtiyorov, M.O.Mirzamaxmudova [3] va boshqa iqtisodchi-faylasuf olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Biroq, respublikada «ijtimoiy himoya yagona reestri»ni to'liq joriy etish va kambag'allik darajasini aniqlash amaliyoti, kambag'allikni qisqartirish mexanizm va usullari, aholining ehtiyojmand qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda aholi turmush darajasini izchil oshirish jarayonining kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy jihatlari yetarlicha o'rganilmagan. Biz maqolada o'rganilmagan tamonlarini yoritishga harakat qildik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi jadal amalga oshirayotganini har birimizga atrofimizda bo'layotgan yangizcha ko'rinishdagi zamonaviy islohotlardan yaqqol ma'lum. Unga ko'ra, Yangi O'zbekiston:

har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan;

odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan;

hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lgan;

tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlatdir.

«Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat ham tushuniladi», — deya ta'kidladi prezident [4].

Mamlakatimiz yetakchisi barcha davlat organlarini xalq bilan muloqot qilish va maslahatlashishga, fuqarolarning fikr-mulohazalarini inobatga olishga hamda ijtimoiy yakdillikka erishishga safarbar etib, jamiyat bilan muloqotining shunday shaklini yo'lga qo'ydi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda shunday noyob tizim yaratildiki, Prezidentimiz Murojaatnomasining mazmuni barchamiz uchun davlat rahbarining mavjud muammolarga nisbatan nuqtai nazarlari yig'indisi emas, balki jamiyatimizdagi barcha dolzarb masalalar va muammolarni qamrab olgan, Shu bilan birga, davlat va jamiyatni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan keng ko'lamlı vazifalar belgilab berilgan yaxlit dasturiy hujjatga aylandi. Biz aynan Prezidentimiz Murojaatnomalari orqali jamiyatimizni jipslashtirishga, jamoatchilikning, fuqarolarning va manfaatlar guruhlarining xohish-istaklarini eng yuqori darajada hisobga olishga erishish yo'lidagi muhim qadamlarni tashlashga muvaffaq bo'ldik [5].

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020–yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida respublikamizda kambag'allikni qisqartirishni yechimi kutayotgan dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra “Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak” [6]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi deb qayta nomlanishi aynan ushbu vazifalarni ijrosini tizimli ta'minlashda amaliy qadamgina bo'lib qolmasdan, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish borasida tarixiy instutsional islohotlar amalga oshirilayotganining yorqin ifodasi hamdir.

Albatta, yuqorida qayd etilganidek, global miqyosda dunyo minbarlarining bosh mavzusiga aylanayotgan muammolardan biri bo'lgan kambag'allikni qisqartirishning to'g'ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan to'liq ish bilan band bo'lishlikni ta'minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kambag'allikni yuzaga keltiradigan bosh omil ham ishsizlik darajasining yuqoriligi, ishchi kuchi qatlamining bugungi zamon talabi darajasiga mos emasligi, inson kapitali qiymatining mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan orqada qolayotganligida, deb baholash mumkin. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish masalasi so'nggi yillarda davlat siyosati kun tartibidagi eng muhim masalaga aylanganligi, shuningdek, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar va qisqa davrda erishilgan natijalar ko'pchilik xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning Forumga qiziqishini uyg'otdi.

Soha yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hamda istiqboldagi rejalar muhokamasi va o'zaro fikr almashish maqsadida tashkil etiladigan “O'zbekiston kambag'allikni

FALSAFA

qisqartirish xalqaro forumi”da 250 ga yaqin qatnashchilar, shu jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ga a’zo, kuzatuvchi va hamkor davlatlar, xalqaro rivojlanish institutlari, akademik doiralar va boshqa xorijiy mamlakat va tashkilotlarning jami 100 dan ortiq vakillari ishtirok etdilar.

Xususan, forumda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) Bosh kotib o’rinbosari va yordamchi ma’muri Usha Rao-Monari, Jahon Bankining Yevropa va Markaziy Osiyo bo’yicha mintaqaviy direktori Lalita Murti, Turk siyosatchisi, Turkiyaning sobiq Moliya va g’aznachilik vaziri Lutfi Elvan, Jorj Vashington universiteti xalqaro biznes amaliyoti professori Denni Leyptsiger, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Bosh kotibi Chjan Min, Kambag’allik va inson taraqqiyoti bo’yicha Oksford tashabbusi direktori Sabina Alkayr, Xitoy xalqaro kambag’allikni qisqartirish markazi direktori Lyu Junvenning qatnashdilar.

Shuningdek, tadbirda Birlashgan millatlar tashkiloti, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg’armasi, YUNISEF, Frantsiya taraqqiyot agentligi, Osiyo taraqqiyot banki, BMTning oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi tashkiloti, Global yashil o’sish instituti kabi xalqaro tashkilot va moliya institutlari vakillari ishtirok etdi.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo’yicha ba’zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo’lmaydi, albatta.

Kambag’allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu yo’nalishdagi ijtimoiy qo’llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarini bajarishda yuksak samaradorlikka erishilmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini yanada oshirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda [7].

Mamlakatimizda kambag’allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhini aniqlash bo’yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondaShuvlarning ishlab chiqilishini talab etadi.

O’z navbatida, ushbu uslubiy yondashuv va bazani shakllantirish aholining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini bevosita o’zida aks ettiruvchi, ya’ni ularning iste’mol tarkibi va xususiyatlari bo’yicha real holatni ifodalovchi ko’rsatkichlarni hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xususan, mamlakatimizda aholining kambag’al qatlamini aniqlash uslubini amaliyotga joriy etish va takomillashtirib borish, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021–yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida» 2021–yil 3-fevraldagi PF-6155-son va «Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko’rsatish hamda kambag’allik bilan kurashish ko’lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida» 2021–yil 11-avgustdagi PF-6277-son Farmonlari ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi tomonidan Jahon bankining texnik ko’magi asosida minimal iste’mol xarajatlari qiymatining dastlabki hisob-kitoblari tayyorlanganligini ma’lumot uchun qabul qilib, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo’mitasining minimal iste’mol xarajatlari ko’rsatkichidan kambag’allik mezoni (yoki chegarasi) sifatida foydalanish bo’yicha taklifiga rozilik bergan[9]. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlari bilan hamkorlikda 2022–2026–yillarda O’zbekiston Respublikasida kambag’allikni qisqartirish strategiyasi loyihasini ishlab chiqdi [10].

Qaror loyihasi aholining kambag’al qatlamiga ijtimoiy yordam va xizmatlar ko’rsatish orqali kambag’allik darajasini keskin qisqartirish, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish, kambag’allikni qisqartirishda ilg’or xorijiy tajribalarni joriy etish, aholining kambag’al va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga ijtimoiy yordam va xizmatlar ko’rsatish jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash kabi maqsadlarda ishlab chiqilgan.

Qaror loyihasida 2022–2026–yillarda quyidagi ustuvorliklarni amalga oshirish orqali kambag’allikni qisqartirishga kompleks yondashuvni joriy etish nazarda tutilgan:

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali aholi turmush farovonligini oshirish;
- ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish;
- inson kapitalidan samarali foydalanish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish;
- muhandislik-infratuzilma obyektlarini yaxshilash;
 - aholini muqobil energiyadan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish;
 - atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikka erishish.

Shu bilan birga, qaror bilan O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi tasdiqlanadi.

Qayd etilishicha, mazkur qaror loyihasi 50 ta vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar bilan kelishilgan.

2022–2026–yillarga mo'ljallangan mazkur strategiyani amalga oshirish natijasida (2020–yilga nisbatan):

- YaIM o'sish sur'atini 1,5 barobarga oshirishga;
- Aholi jon boshiga YaIMni 1,4 barobarga oshirishga;
- Kambag'allik chegarasini amaldagi 440 ming so'mdan 683,2 ming so'mgacha ko'tarishga (1,6 barobar);

– Ishsizlik darajasini esa 2 barobarga kamaytirishga erishilishi nazarda tutilmoqda.

"2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori loyihasida strategiyani amalga oshirish doirasida quyidagilar kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash;
- aholining ehtiyojmand qatlami tomonidan ta'lim tizimining barcha bosqichlaridan va sog'liqni saqlash tizimidan bepul yoki imtiyozli foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
- aholining ehtiyojmand qatlamining bandlik darajasini oshirish hamda ularga mehnat bozorida yuqori daromadli ish o'rinlarini topishiga ko'maklashish;
- tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda aholi ehtiyojmand qatlamining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytirish;
- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratish;
- muhandislik-infratuzilma ob'ektlarini qurish va ulardan foydalanishni standartlashtirish, aholining muqobil energiyadan va zamonaviy aloqa kommunikatsiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish;
- atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikka erishishda xalqaro standartlarni qo'llash orqali iqlim o'zgarishining aholi salomatligiga salbiy ta'sirini yumshatish;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni erkinlashtirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi tashkil etiladi.

Shuningdek, Kengash tomonidan strategiyani ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun nufuzli xalqaro tashkilotlar, milliy ilmiy-tadqiqot muassasalari ekspertlari va mutaxassislari jalb etiladi [11].

2022–yil 28-yanvar kuni O'zbekiston bosh vaziri o'rinbosari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri Jamshid Qo'chqorov Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar vazirlik va idoralari rahbarlarining kambag'allikni qisqartirish masalalariga bag'ishlangan onlayn yig'ilishini o'tkazdi.

Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi rahbari pandemiya sharoitida mavjud oltin-valyuta zaxiralari O'zbekiston ga qisqa vaqt ichida zarur resurslarni jalb etish va Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasini shakllantirishga katta yordam berganini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, bu mamlakatda uchta asosiy yo'nalish: sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish olib borish imkonini berdi.

O'zbekiston 2022–2026–yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish doirasida 2026–yil oxirigacha mamlakatda kambag'allik darajasini ikki baravarga qisqartirishni rejalashtirmoqda. Belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy shartlari sifatida makroiqtisodiy barqarorlik va turg'un iqtisodiy o'sishni yuqori sur'atlarda ta'minlash vazifasi qo'yildi. Uning

FALSAFA

so'zlariga ko'ra, bu 2030–yilga borib o'rtacha daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, strategiyaga ko'ra, ushbu maqsadga erishish uchun norasmiy ishlayotgan 2,5 mln fuqarolarning bandligini qonuniylashtirish, ularga ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini berish, xotin-qizlar o'rtasidagi ishsizlikni ikki baravar qisqartirish, 700 ming nafar ishsiz ayollarni davlat hisobidan o'qitish, nogironligi bo'lgan odamlar bandligini 3 barobar oshirish, Ijtimoiy Kodeksni qabul qilish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Jamshid Qo'chqorov kambag'allikni qisqartirish sohasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash uchun quyidagilarni taklif qildi:

- SHHT mamlakatlari o'rtasida qashshoqlikni qisqartirish sohasida doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, Shu jumladan, ushbu sohada doimiy tajriba almashish mexanizmini va kambag'allikni qisqartirishning samarali usullarini joriy etish;
- barcha SHHT mamlakatlari manfaatlariga javob beradigan qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha Doiraviy hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish masalasini ko'rib chiqish;
- SHHT mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mutaxassislar uchun seminarlar, mahorat darslari va treninglar tashkil etish.

Prezident Shavkat Mirziyoyev dekabr oyi oxirida 2022–yilda O'zbekistonda kambag'allik darajasini 20-25 foizga qisqartirish rejalashtirilgani haqida ma'lum qilgandi [12]. Bu ijtimoiy islohotlarning uzviy davomi sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash ishlarini yangi pog'onaga olib chiqish bo'yicha videoselektorida ta'kidlanganidek, 2023–yil 1-iyundan boshlab “20 ming tadbirkor— 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshirilishi ma'lum qilindi. Shuningdek, dasturga 2023–2024–yillarda jami \$1 mlrd ajratilishi belgilangan. [13]

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarimiz tahlili asosida, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, albatta, kelajagimiz taraqqiyoti va hayotimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu ko'rsatkichlarning o'zi jamiyatimizda yangicha ijtimoiy himoya siyosati yuritilayotganligining isbotidir. Bu o'rinda mamlakatimizda 2023–yil 1-iyundan boshlab “20 ming tadbirkor— 500 ming malakali mutaxassis” dasturining amalga oshirilishi kambag'allikka qarshi kurash strategiyasining eng katta xorijiy tajribalarga asoslangan natijaviy yutug'i deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston нашриёти, 2021. – Б. 199.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. -Т.: “Fan” нашриёти, 2019 -595 б.; Абдурахмонов Қ.Х. таҳрири остида. Мирзамахмудова М.О. Аҳолининг ижтимоий жиҳатдан муҳтож қатламларини аниқлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш // Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати 2022. - 56 б.
4. Янги Ўзбекистон деганда, ҳар бир фуқароси учун ғамхўрлик қиладиган, очиқ ва адолатли жамият ҳам тушунилади. 31 август 2022. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/31/new-uzbekistan/>
5. Исмоилов Н. Янги Ўзбекистоннинг янги истиқболлари. 13 январ 2021. <https://yuz.uz/news/>.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521).
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston нашриёти, 2021. – Б. 131.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 27.08.2021 йилдаги 544-сон. <https://lex.uz/docs/5606697>.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 27 августдаги 544-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5606697>.
10. Ўзбекистонда 2022–2026 йилларда камбағалликни қисқартириш стратегияси ишлаб чиқилади. 31.05.2022. <https://xabardor.uz/kr/post/>
11. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш бўйича 4 йиллик стратегия ишлаб чиқилмоқда. 30.05.2022. <https://xabardor.uz/kr/post/>
12. Ўзбекистон 2026 йил охиригача камбағалликни икки бараварга қисқартирмоқчи — Жамшид Қўчқоров. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/poverty/>
13. Prezident kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi ko'rsatmalar berdi. <https://www.spot.uz/oz/2023/05/15/poverty-reduction>